

## **ARAB XALIFALIGINING MOVAROUNNAHR VA XUROSONGA BOSQINI VA UNING OQIBATLARI**

*Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi*

*Tel: +998919058632*

*E-pochta [sattorovfirdavs1601@gmail.com](mailto:sattorovfirdavs1601@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri – bu Arabxalifaligdir. Arab xalifaligi davri O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Hindiston, Pireney yarim oroli va shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o'ziga xos yuksalish davrini belgilab berdi. O'rta Osiyo hududi arab xalifaligiga qarshi mardonavor kurashishgan. Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyo hududida islom dini tarqaldi. Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyoning barcha hududlari bosib olinishi va ularga turli xil soliqlar solinishi bu davrda ko'pgina qo'zg'olonlar keltirib chiqargan.

**Kalit so'zlar:** Yaman, arablar, sug'd, Xuroson, Tarxun, Muslim ibn Ziyod, Movarounnahr, O'rta Osiyo, Qutayba ibn Muslim, Marv, Buxoro, Shuman, Xotun, Hurzod, Chag'on, Qoshg'ar, Sulaymon, Valid, Belozuriy, Narshaxiy, Sayid ibn-Xaroshiy, Ashros.

**Аннотация:** Одной из стран, оставивших огромный след в мировой истории, является Арабский Халифат. Период Арабского Халифата отмечен периодом уникального подъема в социальном, экономическом и культурном развитии народов Средней Азии, Ирана, Афганистана, Ближнего и Среднего Востока, Северной Индии, Пиренейского полуострова и Северной Африки. Среднеазиатский регион доблестно сражался против арабского халифата. Во времена Арабского халифата ислам распространился по всей Средней Азии. Во времена Арабского халифата завоевание всех частей Средней Азии и обложение их различными налогами привели к многочисленным восстаниям в этот период.

**Ключевые слова:** Йемен, арабы, Согд, Хорасан, Тархун, Муслим ибн Зияд, Мовароуннахр, Средняя Азия, Кутайба ибн Муслим, Марв, Бухара, Шуман, Хатун, Хурзад, Чаган, Кашгар, Сулейман, Валид, Белозури, Наршахи, Сайд ибн-Хароши, Ашрос.

**Annotation:** One of the countries that has left a huge mark on world history is the Arab Caliphate. The period of the Arab Caliphate marked a period of upsurge in the social, economic, and cultural development of the peoples of Central Asia, Iran, Afghanistan, the Near and Middle East, North India, the Iberian Peninsula, and North Africa. The Central Asian region fought valiantly against the Arab caliphate. During the Arab Caliphate, Islam spread throughout Central Asia. During the Arab Caliphate,

the conquest of all parts of Central Asia and the imposition of various taxes on them led to many uprisings during this period.

**Keywords:** Yemen, Arabs, Sughd, Khorasan, Tarhun, Muslim ibn Ziyad, Movarounnahr, Central Asia, Qutayba ibn Muslim, Marv, Bukhara, Shuman, Khatun, Khurzad, Chagan, Kashgar, Sulayman, Walid, Belozuri , Narshahi, Sayyid ibn-Kharoshi, Ashros.

VI asrning oxiri va VII asr boshlarida ya'ni islom dinining vujudga kelishi arafasida somiy qavmiga mansub arab qabilalari o'rtaсидаги mavjud ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda savdo-sotiq rivojlanib ilk davlat belgilari shakllanayotgan bir paytda yarim orolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda hali ham ibridoiy turmush tarzi saqlanib qolgan edi, sahrolarda ko'chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirayotgan arab qabilalari esa hatto patriarchal urug'chilik tuzumining ilk bora yemirilish bosqichida turadilar. Aytmoqchimizki Arabiston yarim orolida yashagan asosiy ko'pchiligi ularga qo'shni yashagan Misr, Vizantiya, Eron, Mesopotomiya kabi qadimiylar madaniyat markazlariga qaraganda tarixiy taraqqiyotning anacha quyi bosqichida bo'lib orqada qolgan edi.

O'rta Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlim va sharoiti hamda behisob boyliklari hamisha arablarning diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi 651-yilda Marvni ishg'ol etish bilan boshlandi. Arablar Amudaryordan shimolda joylashgan yerlarga "Movarounnahr" ya'ni "daryoning ortidagi yerlar" deb nom berishadi. [1,132-133 b.] 652- arablar Balx shahri va Chag'oniyonni egallahsga muvaffaq bo'ldilar. [1,]Bu esa ilk bor Movarounnahrni egallah eddi. 654- yilda Sug'dagi Maymurg' qala'siga arablarning birinchi hujumi bo'ldi. [1, 133 b. ] 657 yilda arablar Chag'oniyonga qayta yurish qilib eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar. Arablar bosqini arafasida Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu yerda 15 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar bo'lib ular o'zaro urushlar olib borar edi. Bu hol arablar tomonidan O'rta Osiyo yerlarini bosib olinishini tezlashtirdi.

Arab bosqini ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqich 705 - yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davrda vatanimiz hududiga vaqt vaqt bilan hujumlar uyushtirib turdilar, mamlakat boyliklarini taladilar, ko'plab odamlarni qul qilib o'z yurtlariga olib ketdilar va o'lkanib bosib olish maqsadida harbiy ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanganlar. [1, 134-135 b.] O'rta Osiyoning boyliklari mol- dunyoga o'ch arab sahroyilarining tinchligi va farog'atini buzgan edi. Har ikki o'rtada shartnomalar bitim tuzilgan tuzulgan bo'lsada , Ubaydulloh o'rniga Xuroson amiri etib tayinlangan Sayid ibn Usmon 675 – yildan 676- yilgacha Buxoro qo'shin tortadi. [1, 136-137 b.] U juda ko'p hiyla nayranglar ishlatib Buxoro va unga yordamga kelgan Sug'diyona, Kesh, Nasaf qo'shinlarini tor- mor keltirdi. Buxoro podshosi Xotun ibn Usmonning

talabi bilan uning huzuriga borishga majbur bo'ldi va juda ko'p o'lponlar to'lab shahzoda va aslzodalardan 80 kishini garovga berdi. Shundan so'ng arablar Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandga hujum qildilar. Ular bu joylarni egallab juda ko'p boyliklarni qo'lga kiritdilar va samarqandliklardan 30 ming kishini asirlikka oldilar.

Xuroson amirligiga Muslim ibn Ziyod ibn Abiyix tayinlanadi. U ham o'z faoliyatini Buxoroga yurishidan boshlaydi. Buxoro hukmdori hargalgidek yana turklarga va sug'dlar hokimi Tarxunga yordam so'rab murojaat qiladi. Biroq bu safar ham muslimmon arablarning qo'li baland keladi. 704- yilda Xuroson taxtiga Qutayba ibn Muslim o'tiradi va Xurosonni batamom o'ziga bo'ysundiradi. [1, 135 b.] Ana shu davrdan e'tiboran arab bosqinchilari tomonidan Movarounnahrni zabit etishning ikkinchi davri boshlanadi. Endi ular O'rta Osiyoni batamom bosib olishga qaror qiladilar. Qutayba ibn muslimning 705 – yilda ushbu maqsad yo'lidagi Axorun va Shuman (Surxon va Kofirnihon oralig'idagi yerlar) hududlariga uyushtirgan birinchi yurushi muvaffaqiyatsiz yakunlanadi.

Qutayba kata tayyorgarlikdan so'ng Jayhun daryosidan o'tadi. Poykand aholisi undan xabardor bo'lib, Poykandni juda mustahkam hisor bilan o'raydilar, qadimgi vaqtarda Poykandni shahriston deganlar va mustahkamligidan uni "jez shahar" deb ataganlar. Muslimmonlar qattiq va shiddatli janglardan so'ng bu shaharni egallaydilar. Ikki o'rtada sulk tuzuladi. Qutayba Poykanda shahrida amir qilib Varqo ibn Nasr Boxiliyni tayinlab o'zi Buxoro tomon ilgari yurushni davom ettiradi. Poykandda hukmron bo'lib qolgan Varqo shahar xalqiga jabr va zulm o'tkazadi, axloqiy buzuq ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga javoban shahar dehqonlari qo'zg'olon ko'taradilar. Qutayba Poykandni batamom o'ziga tobe' etgach uning atrofidagi barcha qishloqlarni egallaydi va 707 – yilda Kesh, Naxshabni fatx etadi. [1, 136 b.] Turk hoqonlari Qutaybaga qarshi ittifoq tuzib Torob, Xunbun va Romiton oralig'ida uni ko'p lashkar bilan o'rak oladilar. Xitoy podshosining jiyani Ko'rmag'onun ham bu ittifoqqa qo'shilad. Natijada Qutayba og'ir ahvolga tushib qoladi. Qutaybaning yaqin yaqin kishilaridan bo'lgan Xayyoni Nabatiy ishlab chiqqan reja asosida muslimmon arablar og'ir vaziyatdan eson-omon qutuladilar.

Marvda biroz muddat dam olib, 709-yilda Iroq va Xurosandan yordam kuchlari olib Buxoro ustiga yurish qiladi. [1, 137 b.] Bu Qutaybaning to'rtinchi marta Buxoro ustiga lashkar tortib kelishi edi. Bu paytda Xotun qarib qolgan davlatni uning o'g'li To'g'shoda boshqarardi. Qutayba qattiq jangdan so'ng Buxoroni egallaydi. To'g'shoda islom dinini qabul qilgach Qutayba uni Buxoro taxtida hukmron sifatida qoldiradi. To'g'shoda o'ttiz ikki yil Buxoroni boshqaradi. Qutayba ibn Muslim shimoliy sharq tomon g'olibona bosqinchilik yurishlarini davom ettiradi. [1, 136 b.] U 710-yilda Shuman, Nasaf, Keshni zabit etdi. 711- yilda aka-uka Chag'on va Hurzod janjalidan foydalanib Xorazmni bosib oladi. [1, 137 b.] Shundan so'ng Qutayba endi

asosiy zARBANI kuchli raqib, lekin laqma siyosatidan Sug'd hokimi Tarxunga qarshi qaratadi. O'rtada tuzulgan sULH shartnomasiga qaramasdAN; o'ZARO kelishuv asosida Samarqanddagi masjid qurilishini tezlashtirish bahonasida shaharga g'isht teruvchilar o'rniga 4000 qUrollangan arab kiritiladi. Shahar talanib, aholi xarob qilinadi. Tarxun ham qatl etiladi.

Samarqandda qo'lga olingan oltin butlar va ularning jihoz;ari 50 ming misqolni tashkil etadi. Samarqandni egallashda 300 ta devorbuzar moslamalar ishlatalib, arablar Samarqandni batamom vayron qiladilar. Nihoyat Samarqandning yangi hokimi G'urak ( 709-738 ) bilan Qutayba o'rtasida sulh bitimi imzolanib, bu bitimga ko'ra u arablarga yiliga 200 ming dirham tovon to'lashi kerak bo'ladi. [2, 327-328 b.] Yana arablarga 30 ming sog'gom kishini qul o'rnida berish sharti ham bor edi. Shahar markazi bo'shatildi. U yerda Qutayba masjid qurdirdi. 713-715 yillarda u Toshkent, Xo'jand, Turkiston Chini (Sharqiy Turkiston ) yerlarini to Qoshg'argacha bo'lgan yerlarni egallaydi. [2, 328 b.] Ana shu tariqa Qutayba ibn Muslim O'rta Osiyo yerlarini zabit etib, Xitoy hududlariga cho'zilgan o'lkada yashayotgan xalqlarni islom diniga kiritadi. Farg'ona orqali Qutayba Marvga yo'l oladi.

Marvda xalifa Valid vafot etgan bo'lib, xalifalik taxtiga uning raqibi Sulaymon ibn Abdumalik o'tirgan edi. Qutayba undan xavotirlanar edi. Shu sababdan u Sulaymonga qarshi ochiqdan ochiq isyon ko'taradi. Ammo isyonchi sifatida o'z askarlari tomonidan o'diriladi. Bu voqeA 714-yilda Qutayba ibn Muslim 47 yoshida ekanida sodir bo'lган edi. [2, 328-329 b.] Boshqa manbalarda esa 715 – yilda arab askarlari tomonidan o'ldiriladi, deyiladi. Arablar O'rta Osiyo hududlarini bosib olgacg o'lkada zulm siyosatini kuchaytirdilar. Arablar Movarounnahrda birinchi kundan boshlab qattiqqo'lllik bilan arablash tirish siyosatini olib bordilar. Ushbu maqsad yo'lida ular minglab- minglab arablarni O'rta Osiyo hududlariga ko'chirib kelganlar va eng yaxshi yerlarni ularga zo'rlik bilan olib bergenlar.

Movarounnahr hududlarida arablar egallab olgan ba'zi yerlar hozirgacha ham "arab qishloq" lari nomi bilan saqlanib qolgan. Dali ibn Ziyod davridayoq o'lkaga 50 mingdan ortiq arab aholisi Basra, Kufa atroflaridan ko'chirib keltirilgan. [ 2, 329-334 b.] Belozuriy va Narshaxiyning bergen ma'lumotlariga qaraganda arab lashkarboshilari ko'chirib keltirilgan arablarga mahalliy xalqlarning uy-joylarini zo'rlik yo'li bilan tortib olib bergenlar. Jumladan Qutayba Samarqand va Buxoroni egallagach , shaharlardagi uylarning yarimini arablarga bo'shatib berishlarini talab qilgan. Faqat quraysh qabilasining o'zidan Samarqandga besh ming aholi ko'chib kelgan. Buxoro , Samarqand, Marv va boshqa shaharlarning aholisi o'z yashash joylaridan masjid qurish bahonasida ham ko'chirilgan. [2, 334 b.]

Arablar ayni zamonda islom dinini qabul qilgan va musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillarini har tomonlama qo'llab- quvvatladilar va ularga imtiyozlar berdilar. Jumladan, islom qabul qilganlar juz'ya va xiroj soliqlaridan ozod qilingan bo'lsa,

undan bosh tortganlardan bunday soliqlar qattiqo'llik bilan undirib olingen. Islom dinini qabul qilganlarni juz'ya va xiroj soliqlaridan ozod qilish siyosatini xalifa Umar II ham yurgizgan va u bu siyosatni Xurosonga 717- yilda noiblikka tayinlangan Jarroh ibn Abdullohdan bajarilishini talab qilgan. [1, 143-144 b.] Jarroh rasman xalifaga bo'ysungan bo'lsada bosib olingen mamalakat aholisi islomni qabul qilgan bo'lishidan qat'iy nazar xiroj solig'ini to'lashi kerak deb hisoblardi. Bundan tashqari Jarroh islomni qabul qiluvchilar uchun sunnatni shart qilib qo'ygan. Mahalliy xalq o'rtasida Jarroh zulmidan norozilik kuchaygan. Umar II vaziyatni murakkabligini hisobga olib Jarrohni 719- yillar ozor va arman yurtiga hokim qilib jo'natadi. [1, 145 b.] Xullas Movarounnahr hududida yashagan xalqlar orasiga islam dinining kiritilishiga ayniqsa keksalar qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida "Qutayba ibn Muslim shahar ichkarisidagi Hisorning ichida masjidi jome bino qilgan vaqtida odamlar "Registon" deb ataganlari bo'sh maydonni Iyd namozi o'qiladigan joy qildi va musulmonlarni Iyd namozini o'qish uchun o'sha yerga chiqardi. U kishilarga (Iyd namoziga chiqqanda) qurollarni ham olib chiqishga buyurdi, chunki islam dini hali yangi bo'lib, musulmonlar kofirlardan xotirjam emas edilar", deydi.

Movarounnahrda 719- yil arab hokimiysi tugaydi, degan gap -soz'lar tarqala oshlaydi. Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo'lib 720-yilda Sug'd aholisi bosh ko'taradi. [1, 145-146 b.] Qo'zg'olonga Samarcand ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtichlar boshchilik qiladilar. Sug'dlarga yordam berish uchun turkiy hoqon shahzoda Kursul boshhiligidagi turkiy lashkarlarni Samarcandga yuboradi. Sug'ddagi qo'zg'olon umumxalq qo'zg'olonga aylanib ketdi. Qo'zg'olonhilar arablarga zarba bera boshlaydilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan arab harbiy qisimlarigina katta boj va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqladilar. Xuroson noibi Sayid ibn Abdulaziz bu qo'zg'oltonni bostirishga muvaffaq bo'lomadi.

721- yil xalifa Yazid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Xuroson noibi etib Sayid ibn Amir al- Karoshiy tayinlanadi. Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arab hokimyatinini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros ibn Abdulloh (727-730) islam dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya solig'I olishni bekor qiladi. U islam dinini keg targ'ib qila boshlaydi. [2, 329-330 b.] Chegaradagi yerlarda yangi istehkom qurilib chegaralar mustahkamlana bordi. 725 – 729 yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarcand, Buxoro, Xuttalonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu davrda Ashros ibn Abdulla As- Sulomiy noib bo'lib u ikki tomonlama siyosat olib borib mahalliy aholining g'azabiga duchor bo'lgandi. U dastlab musulmon dinini qabul qilgan fuqorolardan heh qanday soliq olinmaydi, deb Xuroson va Movarounnahr aholisining ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Ashros arablar kuchi islamda islomni

qabul qilgan mahalliy xalq arablarga hech qanday qarshilik qilmaydi deb o'ylagan edi. So'g'diyilar uning vadasiga ishonib tezda islom diniga kirgan va muslimmon bo'ldilar.

**Xulosa:** Shunday qilib sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo`lmish Movarounnahrni o`z mustamlakalariga aylantiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablarga qaraganda anchagina oldinda edilar. Arablar Movarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida bu yerda ko`pdinlilik hukm surardi. Bu hol arablarga qarshi o`lkamiz hududi xolqlarining birlashuviga to'sqinlik qildi va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirdi. Movarounnahr va Xuroson aholisi qanchalik qarshilik ko'rsatishmasin arablar ularni har tomondan siquvga olishdi. Barcha aholi islom diniga o'tqazildi, o'tmaganlar jazolanib mol-mulkleri musodara qilindi. Islom diniga o'tqazish uchun aholiga pul berilishini ham ko'rishimiz mumkin. Butlar, ibodatxonalar buzilib ularning o'mniga masjidlar qurildi. Barcha islom diniga o'tqazildi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. R.Shamsuddinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. Toshkent, Sharq nashriyoti, 2010-yil, 132-164 b.
2. A.S.Sagdullayev. Ozbekiston tarixi. Toshkent, Vneshinvestprom, 2019-yil, 322-339 b.
3. R.Murtazayev. O`zbekiston tarixi. Toshkent 2001-yil, 126-135 b.
4. B.J. Eshov, A.A.Odilov. O`zbekiston tarixi. Toshkent, 2014-yil, 195-208 b.
5. A.R.Muhammadjonov O`zbekiston tarixi ( IV – XVI asr boshlarigacha ) G`afur G`ulom nomidagi nashriyoti, Toshkent, 2004 – yil , 62-91 b.
6. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S.Burxonova. O`zbekiston tarixi, Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2006-yil. 104-115 b.